| | | |
|---|---|---|
| 1. | **EMITENTNING NOMI** | |
| | To'liq: | "ANOR BANK" aksiyadorlik jamiyati |
| | Qisqartirilgan: | "ANOR BANK" AJ |
| | Birja savdo belgisi nomi:* | |
| 2. | **ALOQA MA'LUMOTLARI** | |
| | Manzil: | Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Sayram ko'chasi, 5-uy, 4-uy |
| | Почтовый адрес: | Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Sayram ko'chasi, 5-uy, 4-uy |
| | Pochta manzili:* | info@anorbank.uz |
| | Rasmiy veb-sayt:* | www.anorbank.uz |
| 3. | **MUHIM FAKTLAR HAQIDA MA'LUMOT** | |
| | Muhim faktning soni: | 06 |
| | Muhim faktning nomi: | Emitentning oliy boshqaruv organi tomonidan qabul qilingan qarorlar |
| | Umumiy yig'ilish turi: | Kuzatuv kengashi yig'ilishi |
| | Umumiy yig'ilish sanasi: | 20.06.2024 yil. |
| | Umumiy yig'ilish bayonnomasini tuzish sanasi: | 20.06.2024 yil. |
| | Umumiy yig'ilish o'tkaziladigan joy: | Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Sayram ko'chasi, 5-uy, 4-uy |
| | Umumiy Majlis kvorumi: | 100% |

| № | Ovoz berishga qo'yilgan masalalar | Ovoz berish natijalari | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | Ha | | Qarshi | | Betaraf | |
| | | % | Miqdori | % | Miqdori | % | Miqdori |
| 1. | "ANOR BANK" AJning ustav kapitalini qo'shimcha egasining nomi yozilgan imtiyozli hujjatsiz aktsiyalar chiqarish yo'li bilan oshirish. | 100 | 5 | - | - | - | - |
| 2. | "ANOR BANK" AJning egasining nomi yozilgan imtiyozli hujjatsiz aktsiyalarini qo’shimcha chiqarish Qarorini tasdiqlash to’g’risida | 100 | 5 | - | - | - | - |

Umumiy yig'ilish tomonidan qabul qilingan qarorlarni to'liq shakllantirish

**1.**

1.1. «ANOR BANK» AJning umumiy qiymati 115 000 000 000 (bir yuz o‘n besh millliard) so‘m bo’lgan, 115 000 000 (bir yuz o‘n besh million) dona egasining nomi yozilgan imtiyozli xujjatsiz aktsiyalar, xar bir donasining nominal qiymati 1 000 (bir ming) so‘m bo‘lgan Olimov Kaxramonjon Anvarovich aktsiyadoriga yopiq obuna xususiy joylashtirish yo’li bilan qo‘shimcha chiqarilish orqali bank ustav kapitali oshirilsin.

1.2. «ANOR BANK» AJning qo‘shimcha chiqariladigan egasining nomi yozilgan imtiyozli xujjatsiz aktsiyalarning chiqarish va joylashtirish tartibi quyidagicha tasdiqlansin:

- «ANOR BANK» AJning egasining nomi yozilgan imtiyozli xujjatsiz 115 000 000 (bir yuz o‘n besh million) dona, xar bir dona aktsiya nominal qiymati 1 000 (bir ming) so‘m umumiy qiymati 115 000 000 000 (bir yuz o‘n besh milliard) so‘m miqdorida bo‘lgan aktsiyalarning ko‘shimcha chiqarilishi;

- ushbu aktsiyalar chiqariluvi yopiq obuna xususiy joylashtirish yo’li bilan bank aktsiyadori Olimov Kaxramonjon Anvarovich nomiga joylashtiriladi;

- ushbu chiqarilishdagi bir dona aktsiyasini joylashtirish narhi 1 000 (bir ming) so‘m miqdorida, ya'ni nominal qiymatida belgilansin;

| | | |
|---|---|---|
| | | - aktsiyalar joylashtirilishi uyushmagan birjadan tashqari qimmatli qog'ozlar bozorida amalga oshiriladi, to'g'ridan-to'g'ri fuqarolik-xukukiy bitim asosida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda. Shunda ushbu aktsiyalar chiqarish to'g'risidagi qarorni qabul qilish kuniga, ya'ni 2024 yil 20 iyun xolatiga, shakllangan reyestrida qayd etilgan aktsiyadorlarga aktsiyalarni imtiyozli sotib olish xuquqini berish yo'li bilan. Imtiyozli xuquqni qo'llagandan so'ng qolgan aktsiyalar bank aktsiyadori Olimov Kaxramonjon Anvarovich nomiga joylashtiriladi.<br><br>- aktsiyalarni imtiyozli sotib olish xuquqining amal qilish muddati 10 kalendar kunida belgilanadi, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda aktsiyadorlarni ommaviy axborot vositalari orqali ularning ushbu chiqarilishdagi joylashtirilayotgan aktsiyalarni imtiyozli sotib olish xuquqi borligini xabardor qilish to'g'risidagi bildirishnoma e'lon kilingan kundan boshlab;<br><br>- bankning aktsiyadorlari chiqarilayotgan aktsiyalarni o'zlariga tegishli bo'lgan shu turdagi aktsiyalarga mutanosib ravishda imtiyozli olish huquqiga egalar;<br><br>- ushbu chiqarilishdagi aktsiyalarni joylashtirish muddati - qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organida aktsiyalarning qo'shimcha chiqariluvini davlat ro'yhatidan o'tkazgan kundan boshlab 90 (to'qson) kun ichida kechiktirmay;<br><br>- aktsiyalarni joylashtirishni boshlash sanasi – imtiyozli xuquqning amal qilish muddati to'g'risidagi bildirishnoma ommaviy axborot vositalarida e'lon qilingan kundan boshlab 11 (o'n birinchi) kuni. Agar bu muddat o'tkunga qadar bankning barcha aktsiyadorlaridan imtiyozli huquqdan foydalanish to'g'risida yoki undan foydalanishdan voz kechish haqida yozma ravishda arizalar olingan bo'lsa, joylashtirishni boshlash sanasi oxirgi ariza kelib tushgan kunidan boshlanadi. Agar joylashtirish boshlanish sanasi dam olish kuniga tug'ri keladigan bo'lsa, joylashtirish boshlanish sanasi keyingi birinchi ish kuniga o'tkaziladi;<br><br>- aktsiyalarni joylashtirishni tugatish sanasi – oxirgi aktsiyani joylashtirish sanasi, lekin qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organida aktsiyalar davlat ro'yxatidan o'tkazilgan sanadan boshlab 90 (to'qson) kundan kechiktirmay;<br><br>- ushbu chikarilishdagi aktsiyalar uchun to'lovlar O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasida amalga oshiriladi. Aktsiyalarni sotib olish pulsiz vositalar orqali ko'zda tutilmagan.<br><br>- ushbu chiqariluvdagi aktsiyalar 100%dan kam miqdorda joylashtirganda, ushbu chiqariluv amalga oshmagan deb hisoblanadi;<br><br>- aktsiyalar chiqarilishi amalga oshmagan deb tan olingan taqdirda bank ushbu xolat to'g'risida ommaviy axborot vositalarida, shunindek korporativ axborot yagona portalida (www.openinfo.uz) va bank veb-saytida (www.anorbank.uz) rasmiy xabarnoma e'lon qiladi;<br><br>- aktsiyalar chiqarilishi amalga oshmagan deb tan olingan kundan boshlab 10 kun mobaynida aktsiya uchun to'lov sifatida olingan mablag'lar qonun xujjatlarida belgilangan tartibda qaytariladi. |
| | **2.** | 2.1. «ANOR BANK» AJning umumiy qiymati 115 000 000 000 (bir yuz o'n besh millliard) so'm bulgan, 115 000 000 (bir yuz o'n besh million) dona egasining nomi yozilgan imtiyozli xujjatsiz aktsiyalar, xar bir donasining nominal qiymati 1 000 (bir ming) so'm bo'lgan qo'shimcha chiqarilish Qarori tasdiqlansin.<br><br>2.2. Bank boshqaruviga O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligida qo'shimcha chiqarilayotgan aktsiyalarning ro'yxatdan o'tkazish uchun barcha zarur choralar ijro etilsin. |

Ijro organi rahbari: Akramov Sherzod Salimovich

Bosh hisobchi: Shamansurova Barno Muzaffarovna

Axborotni veb-saytga joylashtirgan vakolatli shaxs: Amanova Nargiza Alisherovna